

TARIXGA XARITALAR ORQALI BOQISH

Ushbu darsdan so'ng siz:

- odamlar nima uchun xaritalar chizishlarini tushunasiz;
- eng birinchi xaritalar qanday ko'rinishda bo'lganini bilasiz;
- yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk xaritachi olimlar bilan tanishasiz;
- tarixiy va zamonaviy xaritalarni o'zaro farqlashni o'rganasiz;
- tarixiy xaritalar o'tmishni o'rganishda bizga qanday yordam berishini tushuntira olasiz.



Xaritalar qanday paydo bo'lgan?

Tasavvur qiling, siz mutlaqo notanish, bepoyon yerdasiz. Oddiy yo'llar ham, hatto yo'l ko'rsatkichlari ham yo'q. **Adashib qolmaslik uchun sizga nima yordam beradi?**

Albatta, xarita!

Mo'ljal olish

Eng qadimgi chog'larda insonda paydo bo'lgan va bugun ham saqlanib qolgan ko'nikmalardan biri nimaligini bilasizmi?

Bu biror yerga bormoqchi bo'lganda, uning mo'ljalini olishdir.

Odamlar o'zlari yashab turgan tegra, ov qiladigan uzoq hududlar, begona yerlarga otlanganlarida, qaytish yo'llarini belgilashga ehtiyoj sezganlar. Oldiniga atrof-muhitda bor imkoniyatlardan foydalanganlar. Masalan, Quyosh, Oy, yulduzlar, tog'lar, soylar va shunga o'xshash esda qoluvchi narsalarga qarab ish tutganlar. Yo'llarga belgilar qo'yganlar.

Keyinchalik belgilarni tosh, hayvon suyaklari, daraxt po'stlog'i, teriga tushirishni o'rganganlar.



Kun maqoli

Yo'l yursang, sinab
yur, sinab yurmasang,
o'lchab yur.



Ilk xaritalar qanday bo'lgan?

Bugungi kunda ma'lum bo'lgan eng qadimgi xarita namunasi Chexiyaning Pavlov qishlog'idan topilgan. **27 000 yil burun** mamontning o'siq tishiga o'yib chizilgan ushbu xaritada soylar, tog'lar, vodiylar, yo'llar o'z aksini topgan.



5.1-rasm. Mamontning o'siq tishiga o'yib chizilgan xarita.



Eslab qoling

“Xarita” arabcha soʻz boʻlib, geografiya, tarix, sayohat, turli imoratlar, diqqatga sazovor yerlar, mahallalar, yoʻllar, koʻchalarning joylashuviga oid birlamchi maʼlumotlarni oʻzida aks ettiradi.

Nima uchun xaritalar muhim ahamiyatga ega bo'lgan?

Xarita tuzish ishining sayqallanishida savdo-sotiqning o'rni ulkan bo'lgan. Negaki savdogarlar shaharlar, qishloqlar, manzillar, shuningdek, oltin, kumush, temir, tuz, novshadil kabi ma'danlar qazib olingan konlarga olib boradigan yo'llar, hayot-mamot masalasi bo'lgan suv quduqlari bor yerlarni aniq bilishlari o'ta muhim edi. Bundan tashqari, ular eng qisqa va xavfsiz yo'llarni raqobatchilardan sir tutib, faqat o'zlari uchun chizmalar tayyorlaganlar. Sayyohlar va turli muqaddas joylarga boruvchi ziyoratchilar uchun ham xaritalar o'ta zarur bo'lgan. Shuningdek, harbiy yurishlar uyushtirish uchun bosib o'tilajak yo'llar, turli tabiiy to'siqlar – daryolar, tog'lar, cho'llar haqida ham aniq ma'lumotlarga ega bo'lish talab etilgan. Mana shunday ehtiyojlar sababli **geografiya** hamda **xaritachilik** fanlariga asos solingan.



Mashg'ulotlar

Uyingizdan maktabgacha bo'lgan masofaning kichik chizmasini (xartasini) chizing. Yo'lingizda uchraydigan asosiy nuqtalar (chorraha, do'kon, maktab yaqinidagi bog' yoki yirik daraxtlar)ni alohida belgilar bilan ko'rsating. Nima uchun aynan shu nuqtalarni xaritangizga kiritdingiz? Ular qanday ahamiyatga ega?





Bilib qo'ygan yaxshi

Farg'ona vodiysining sharqida (hozirgi Qirg'iziston Respublikasi Jalolobod viloyati), Soymalitosh qoyatoshlaridagi 4000–5000 yillik suratlardan birida uy yoki qishloq rejalarini eslatuvchi chizma bor.



Buyuk vatandoshlarimiz kashfiyotlari

Qo'lingizda na telefon, na internet va na tayyor xaritalar bo'lmasa, atrofingizda qanday shaharlar, tog'lar va daryolar borligini qayerdan bilgan bo'lardingiz? Bu imkonsizdek tuyuladi, shunday emasmi? Ammo bizning buyuk ajdodlarimiz o'tmishda buni uddalab kelganlar.

9-yuzyillikda, ya'ni bundan taxminan **1200 yil avval** yashab ijod etgan buyuk bobomiz **Muhammad Xorazmiy** jahon ilm-fanida algebra fanining asoschisi ekanidan tashqari yetuk geograf olim o'laroq ham tanilgan.

U o'z davrida Yer yuzining mukammal chizmasini yaratish maqsadida **“Yerning surati”** asarini yozgan. Bu asarda olim dunyodagi **2402 ta** shahar, shuningdek, daryo, dengiz va tog'larning joylashuvini aniqlagan hamda ularning ilk xaritalarini yaratgan.

5.2-rasm. Muhammad Xorazmiyning “Yerning surati” asari qo'lyozmasi beti. Unda Nil daryosi havzasining xaritasi ko'rsatilgan. Olim daryoning qayerdan boshlanib, qayerga quyilishini chiziqlar va maxsus sonlar orqali juda aniq tasvirlagan.





5.3-rasm. Abu Rayhon Beruniy tasvirlagan dunyo xaritasi.



5.4-rasm. Mahmud Koshg'ariy tasvirlagan dunyo xaritasi.

Sizningcha, Yerning kattaligini bilish uchun uni aylanib chiqish shartmi? Buyuk yurtdoshimiz **Abu Rayhon Beruniy** uchun bunga zarurat bo'lmagan.

Ulug' bobomiz taxminan **1000 yil burun**, hech qanday sun'iy yo'ldoshlar va kompyuterlarsiz, faqat o'zining o'tkir zehni, ilmiy kuzatishlar hamda matematik ifodalar yordamida Yer shari radiusini katta aniqlik bilan hisoblab chiqqan. Uning hisob-kitobiga ko'ra, Yer shari radiusi 6490 kilometr bo'lgan. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar yordamida aniqlangan Yerning o'rtacha radiusi 6371 kilometrni tashkil etadi. Demak, bobomiz atigi 119 kilometrga adashgan, xolos. Bu o'sha davr jahon ilm-fani uchun ulkan yutuq edi.

Olim o'z hisob-kitoblariga tayanib, xaritalarda tasvirlangan hududdan tashqarida, okean ortida yana bir noma'lum ulkan quruqlik borligini ham birinchi bo'lib taxmin qilgan. **Ushbu quruqlik bugun Amerika qit'asi deyiladi.**

11-yuzyillikda yashab ijod etgan yana bir buyuk olimimiz **Mahmud Koshg'ariy** tilshunoslik bilan bir qatorda dunyoning ilk rangli xaritalaridan birini chizgan.

U ushbu noyob xaritani o'zining mashhur **"Turkiy so'zlar lug'ati"** asariga kiritgan.

Ushbu xaritaning boshqa xaritalardan eng asosiy farqi va afzalligi shundaki, Mahmud Koshg'ariy dunyoning markaziga turkiy xalqlar, ya'ni bizning buyuk ajdodlarimiz yashagan Turon hududini joylashtirgan. Xaritada ranglar shartli belgilar sifatida juda unumli qo'llangan: dengiz va daryolar ko'k, tog'lar qizil, cho'llar esa sariq rangda tasvirlangan. Bu nodir manba orqali biz o'sha uzoq davrlarda turli xalqlar Yer yuzining qaysi hududlarida yashaganlari va qanday atalganlarini bilib olamiz.





Xarita orqali o'tmishga sayohat

Xarita – o'tmishning jonli lavhasi

Xaritalar ikki xil bo'ladi: **zamonaviy** va **tarixiy**.

Zamonaviy xarita bizga bugungi dunyoni ko'rsatsa, tarixiy xarita bizni uzoq o'tmishga – bobo-buvilarimiz yashagan davrlarga sayohat qilishimizga ko'maklashadi.

Tarixiy xaritaga qarab, biz ming, yuz yillar burun ro'y bergan muhim voqealar, davlatlarning chegaralari, mashhur shaharlar, savdo yo'llari, harbiy yurishlar, atoqli shaxslar turmushi haqida bilib olamiz.

Amir Temurning ulkan saltanati

Tarixiy xarita sirlarini tushunish uchun buyuk bobomiz **Amir Temur** qurgan saltanatning xartasiga diqqat bilan ko'z tashlang. Xaritalarda ranglar va chiziqlar o'ziga xos ma'lumotlarni ifodalaydi.

Ko'rib turganingizdek, Amir Temur davrida davlatimiz hududi O'rta Yer dengizidan Xitoy chegarasigacha, Moskvadan Dehligacha yetib borgan edi.

5.5-rasm. Amir Temur saltanati xartasi.



Eng muhimi, ushbu ulkan kenglikda tinchlik-osoyishtalik hukm surgan, ekin-tikinchilik, bog'dorchilik, savdo-sotiq rivojlangan, shaharlar va bog'lar qurilgan, madrasalar, maktablar, kasalxonalar, masjidlar, karvonsaroylar, bozorlar, ko'priklar, hammomlar barpo etilgan.



Mashg'ulotlar

Bugungi jahon xaritasini qo'lingizga olib, Amir Temur saltanati hududi xaritasi bilan solishtiring va u hozirgi qaysi davlatlarni qamrab olganini aniqlang.

Vatanimizning bugungi qiyofasi

Tarixiy o'zgarish va davomiylik

Vaqt o'tishi bilan dunyo xaritalari o'zgarib borgan. Boisi turli sabablar tufayli davlatlar hududida o'zgarishlar sodir bo'lgan. Agar siz davlatimizning Amir Temur davridagi va hozirgi kun xaritalariga e'tibor bersangiz, har ikkovida ham bitta tarixiy o'zakka ko'zingiz tushadi. Buyuk shaharlarimiz, go'zal vodiylar va vohalarimizni qamrab olgan ushbu o'zakda bugun Vatanimiz – O'zbekiston Respublikasi qad rostlab turibdi.



Demak, O'zbekiston hozirgi kunda **Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona, Xorazm, Qashqadaryo** singari **12 ta** viloyat, **Qoraqalpog'iston Respublikasi** va **Toshkent shahridan** iborat.



Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun qadimgi odamlar yo'l va manzillarni biror narsaga chizib qo'yishga ehtiyoj sezganlar?
2. Ilk xaritalar qanday paydo bo'lgan va insonlar ularni nimalarda aks ettirganlar?
3. Tarixiy xaritalarni o'rganish orqali ajdodlarimiz turmushlari haqida qanday qiziqarli ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin?
4. Muhammad Xorazmiy, Mahmud Koshg'ariy va Abu Rayhon Beruniy kabi buyuk olimlar xarita yaratishda qanday yangiliklar qilganlar?
5. Amir Temur saltanati xaritasi bilan bugungi zamonaviy O'zbekiston xaritasi o'rtasida qanday o'xshashlik va farqlarni ko'rishimiz mumkin?

